

METEREOLOGIYANING LINGVISTIK VA MADANIY TUSHUNCHA SIFATIDA MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O'RNI

Xamidova Muborak Hafizovna

Buxoro davlat universiteti

m.h.xamidova@buxdu.uz

Yo'ldosheva Mohinur

Buxoro davlat universiteti magistranti

ANNOTATION

The article focuses on the expression of meteorological in traditional forms and styles in Uzbek and French, as well as the names of natural phenomena. Their symbolic nature is defined.

Keywords: *natural phenomena, meteorology, hail, summer rain, fog, winter rain, frost, snow.*

ANNOTATSIYA

Meteorologiya - bu atmosfera haqidagi fan. Zamonamizga xos bo'lgan ixtisoslashuv tendentsiyasi o'sib borishi bilan "meteorologiya" umumiy nomi ostida tushuncha mazmunini bir necha bo'lim yoki yo'nalishlarga bo'lish mumkin. Ular qisman nazariy yondashuv va qisman meteorologiyani inson faoliyatiga qo'llash orqali aniqlanadi.

Tayanch so'zlar: *tabiat hodisalari, meteorologiya, do'l, yoz yomg'iri, tuman, qishki yomg'ir, ayoz, qor.*

Dastlab maishiy maqsadlarda, qishloq xo'jaligi, transportlarni boshqarish ehtiyoji bilan shakllangan meteorologiya asta-sekin ilmiy asoslarini mustahkamlab bordi. Hozirda meteorologiyadan uchuvchilar, dengizchilar, harbiylar, qishloq xo'jaligi xodimlari keng foydalanadilar.

Qadimda ovchi, to'pchi, merganlar ham meteorologlarni juda hurmat qilishgan, chunki o'q otish aniqligi atmosfera, shamol, namlik va boshqalarga bog'liqdir.

Iqlim mintaqaning fizik-geografik xususiyatlaridan biridir. U odamlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir qiladi: qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, sanoatning geografik joylashuvi, havo, suv va quruqlik transporti iqlimga bog'liq holda tanlanadi.

Atmosfera haqidagi fan bo'lgan meteorologiyaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar inson tili va nutqida o'z o'rniga ega. Ulardan inson o'z faoliyati davomida

doimiy qo‘llanib kelgan. Meteorologiya, odatda, bir nechta bo‘limlarga bo‘lingani kabi uni ifodalovchi atamalar ham turlicha. Bular quyidagilardir:

1. **Dinamik meteorologiya.** Uning o‘zi yana gidrodinamika, termodinamika, aerodinamika kabi atamalarni qamrab oladi. Shundan gidrodinamika kuchlar va harakat, termodinamika issiqlik bilan shug‘ullansa, aerodinamika havo oqimlari va samolyot kabi tashqi jismlarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganadi.

2. **Jismoniy meteorologiya** radiatsiya, issiqlik, bug‘lanish, kondensatsiya, yog‘ingarchilik, muzning o‘shishi, shuningdek, optik, akustik va elektr hodisalari kabi sof jismoniy jarayonlarga e‘tiborni qaratadi.

3. **Klimatologiya** iqlimshunoslik yoki statistik meteorologiya iqlim ko‘rsatkichlarini, uning normal qiymatlarini, chastotasini, o‘zgarish boshqichlarini belgilab beradi.

4. **Sinoptik meteorologiya** ob-havo hodisalarini tahlil qilish va prognoz qilish uchun kuzatuvlar olib boradigan sohadir. U atmosferadagi jarayonlarni muvofiqlashtirilgan holda o‘rganishga qaratiladi va o‘z tarkibiga dinamik hamda fizik meteorologiyani qamrab oladi.

5. **Aviatsiya meteorologiyasi** aviatsiyaga tegishli bo‘lib, **parvoz yoki aeronavtika, aviatsiya meteorologiyasi** havoda uchish oyu-havosi muammolariga meteorologiyani qo‘llash bilan shug‘ullanadi.

6. **Dengiz meteorologiyasi** navigatsiyaga tegishli bo‘lib, suv bilan bog‘liq ob-havoni o‘rganadi.

7. **Gidrometeorologiya** suv toshqinlarini tartibga solish, sug‘orish va boshqalar bilan bog‘liq meteorologik muammolar bilan shug‘ullanadi.

8. **Qishloq xo‘jaligi meteorologiyasi** qishloq xo‘jaligida meteorologiyani qo‘llash va tuproq unumdorligini saqlash bilan shug‘ullanadi.

9. **Tibbiy meteorologiya** ob-havo va iqlimning inson organizmiga ta‘siri bilan shug‘ullanadi.

10. **Aerologiya** – umuman atmosfera haqidagi fan nomi bo‘lib, erkin atmosferadagi sharoitlarni aniqlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuvdan foydalanadigan meteorologiya bo‘limi.

Ba‘zan “meteorologiya” va “aerologiya” so‘zlari birining o‘rnida ikkinchisi ishlatiladiki. Bundan ularning sinonim sifatida qo‘llanishi anglashiladi.

Meteorologlarning asosiy vazifalaridan biri atmosferada sodir bo‘ladigan jarayonlarning mohiyatini tushuntirishdir. Shuning uchun meteorologiya faqat boshqa fanlar bilan bog‘liq holda muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin.

Birinchiidan, meteorologiya geografiya, gidrologiya, okeanologiya, fizika, matematika, kimyo bilan bog‘liq. Atmosfera harakatlari, atmosferadagi fazaviy

o'zgarishlar, atmosferaning harorati va issiqlik sharoitlari masalasi gidromekanika va termodinamika qonunlari asosida o'rganiladi. Optik, elektr, akustik hodisalar fizika qonunlari asosida o'rganiladi. Matematik modellashirish usullari meteorologiyada keng qo'llaniladi.

“Fransuz va o'zbek tillarida meteorologik so'z hamda iboralar semantikasi”
o'zbek tillaridagi meteoronim komponentli meteoleksika va frazeologik birliklar o'ziga xos salmoqqa ega. Taqqoslanayotgan bu tillarda meteorologik leksik birliklar ishtirokida so'z birikmalarining yaratilishi ham faol. Ulardan ayrimlari majoziy ma'noda ishlatilishi va hayotning turli tomonlarini ifodalashi kuzatiladi. Masalan, u otaxonning issiq-sovug'idan xabar olib turdi. Shuningdek, ular shaxs tavsifi uchun ham ishlatiladi. Bunda ular shaxsning tashqi ko'rinishi, jismoniy holati, hissiy, intellektual, nutq sohalari, ijtimoiy munosabatlar va boshqalarni ifodalashda qo'llanadi.

Fransuz va o'zbek tillari meteorologik leksikasi ularning tipologiyasini tasdiqlashga imkon beradi. Fransuz va o'zbek tillaridagi aksariyat meteorologik so'z va frazeologiya umumbashariydir.

Meteorologik leksika va iboralar, so'z birikmalari nafaqat ob-havo, tabiat hodisalari, balki ular xalqning madaniy o'ziga xosligini ham ko'rsatadi. Ya'ni ular ma'lum bir xalq dunyosining lingvistik manzarasini o'zida namoyon etadi. Meteorologiyaning milliy va madaniy o'ziga xosligi lug'at va frazeologiyada yaxlit shaklda taqdim etilishi mumkin.

Meteoronim so'z va birikmalar: 1. Ob-havoning umumiy holatini tavsiflovchi: tumanli havo, tiniq osmon, issiq kunlar, ochiq osmon, quyoshli kun, bulutli kun, ma'yus osmon, bulutli osmon. shudring, ochiq havo, yengil shabada. 2. Havo harorati va atmosferani tavsiflovchi: issiq, iliq, issiqlik, sovuq, ayoz, qahraton sovuq va boshqalar. 3. Havo harakatini tavsiflovchi: shamol, sh, shabada, bo'ron, tayfun, dovul, musson, shabada, sokin, shamolli, kuchli quruq shamol. 3. Atmosfera namligi va yog'ingarchilikni tavsiflovchi: quruqlik, namlik, nam, yomg'ir, sel, do'l, momaqaldiraq, chaqmoq, yomg'ir, qor, qor parchalari, ayoz, shudring, do'l, to'xtovsiz yomg'ir, chelaklab quymoq (juda kuchli) degani, quyosh nurida yog'ayotgan yomg'ir', qor parchalari va hokazo. 4. Intellektual soha: Boshdagi tuman «bir narsani tushunish qiyinligi, tushunmaslik, tushunarsiz» ma'nosi. 5. Nutq sohasi: so'zlarni shamolga otish – behuda gapirmoq, befoyda so'zlamoq. 6. Shaxsning axloqiy fazilatlarini: shamol qaysi tomondan esdi (beparvo odamdan chiqqan kutilmagan fikr). Qishda qor so'raolmaysiz – ziqna, ochko'z haqida. 7. Xulq-atvor, odamning tasviri: shamolga sovrarmoq – behuda sarflamoq. 8. Yashash sharoiti. “Jayhun ustida bulutlar” yoqimsiz, og'ir narsaning yaqinlashishi haqida. 9. Ijtimoiy soha: shamol esdi, o'zgardi. 10. Insonning kutilmagan hodisalarga munosabati: bo'ronlarda bordek halovat. 11. Odamning tashqi

ko‘rinishi: qordek oppoq yuz, peshanasidagi terlari shudringdek tovlanib turardi. Yuragi muz va ayoz kabi sovuq edi. 12. Insonning jismoniy holati: ovozi momaqaldiroqday eshitildi. 13. Hissiy soha: ko‘kragiga bir shabada tegdi (erkin bo‘ldi ma’nosida).

Ikki tilli lingvomadaniy lug‘atda taqdim etilgan meteoronimlar, odatda, quyidagicha izohlanadi: I. Chaqmoq chaqishi bilan birga keladigan tabiat hodisasi – momaqaldiroq. II. Momaqaldiroq – turli dinlar va mifologiyalarda momaqaldiroq xudolar g‘azabining ko‘rinishlaridan biridir, deya talqin qilingan. Masalan, Zevs (yunon mifologiyasi), Yupiter (Rim mifologiyasi), Leigong (Xitoy mifologiyasi), Perun (slavyan mifologiyasi), Hazrat Ali (o‘zbek mifologiyasi) va boshqalar. Hind-evropa an‘analarida momaqaldiroq harbiylarning homiysi hisoblangan. Xitoy mifologiyasiga ko‘ra, Leigong (momaqaldiroq xudosi) va Dianmu (chaqmoq) – er va xotin. Leigong adolatli xudo, u Xudoning saroyi nomidan yomon odamlarni jazolaydi. III. Momaqaldiroq qo‘rquvni keltirib chiqaradi, chunki bu hodisa nafaqat kuchli shovqin va olovli chaqmoqlari bilan bog‘liq, balki o‘lim bilan bog‘liq tahdid soladi. Momaqaldiroqdan o‘ldirilish samoviy jazo sifatida qaralgan. Qadimgi odamlar momaqaldiroqni samoviylarning g‘azabi deb hisoblashgan. Momaqaldiroq komponentlari bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklar: a) hodisaning hayratlanarliligini ko‘rsatadi, biror voqeadan odamning ajablanishi bildiradi; b) shaxs tavsifi uchun ishlatiladi. Masalan, momaqaldiroqday qattiq kulib yubordi, momaqaldiroqdek xurрак otdi. Gi de Mopassonning “Do‘ndiq” hikoyasida bunga shunday misol uchraydi: “Fabrikantning yoshgina xotini ochlikdan bexosdan shunday oh tortib yubordiki, hamma o‘girilib unga qaradi, *uning rangi daladagi qorday oqarib ... hushidan ketdi*”.

Xullas, “ob-havo” – semantik maydonining birliklari tilda his-tuyg‘ularni tavsiflash manbai. U lingvistik va madaniy tushuncha sifatida til va madaniyatlararo mulqotda o‘z o‘rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarqulov Abror. French is another door to the world's scientific and cultural heritage // <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/1756.htm>
2. Vaqqosova D.V. Semantic analysis of anonyms in Uzbek language: Philol. fan. nomz ... dis. avtoref. - Fergana, 2005. - 22 p. ;
3. Aliqulov A.G. Lexical-spiritual group "El-Yagin" (system, application and lexicographic interpretation): Philol. fan. nomz. ... diss. avtoref. - Tashkent, 2011. - 19 p.
4. Annotated dictionary of the Uzbek language. 5 volumes. Volume 1 - T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2007. - P.495.
5. Ulugbek Hamdam. I don't know why I am ... / The old world and the new me: don't choose. - T.: New Age Generation, 2018. - P.170.
6. Ulugbek Hamdam. When it snows ... (Talk) / Old world and new me: selection. - T.: New Age Generation, 2018. - P.170.
7. Khamidova Muborak Khafizovna. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 67.
8. DEOPOETONYMS. Khamidova Muborak Khafizovna. Teacher of department of German and French languages, BSU. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА.
9. The Importance of Segmentation and Title Selection in Biographical Research International Journal of Future Generation Communication and Networking Vol. 14, No. 1, (2021), pp. 4979 – 4985
10. Literary criticism, the author in revealing the essence of the biographical method the place of identity. Scientific reports of bukhara state university, №2, 2022
11. Narzoullaeva, Dilfuza Bafoevna. "Théolinguistique-une tentative de vulgarisation du terme." *Innovative development in educational activities* 2.6 (2023): 58-63.
12. Narzullayeva D. The Main Directions of Theo linguistic Research In Modern Linguistics // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.
13. Narzullayeva, Dilfuza. "“QUR’ONI KARIM” DA RUHIY HOLATNI BELGILOVCHI NUTQIY KONFIGURATSIYALAR." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).